

O'QUVCHILARDA LINGVISTIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Haydarova Maftuna Murodilla qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *lingvistik kompetensiya, nutqiy faoliyat, bilim ko'nikma, malaka, fonetika, leksika, grammatika.*

АННОТАЦИЯ: *В статье рассматриваются вопросы развития языковой компетентности студентов.*

Ключевые слова: *лингвистическая компетентность, речевая деятельность, знания, умения, фонетика, словарный запас, грамматика..*

Abstract: *This article examines the issues of developing linguistic competence of students.*

Key words *linguistic competence, speech activity, knowledge, skills, phonetics, vocabulary, grammar.*

KIRISH

Inson nazariy bilimlarni bilish orqali ma'lum bir bilim va ko'nikmaga ega bo'lib boradi. Bu bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olish orqali esa malakaga ega bo'ladi.

O'quvchilarning lingvistik kompetensiyasi ularning chet til bo'yicha olgan bilimlari, bu bilimlarni amaliyot bilan bog'lash ko'nikmasi va nutq hosil qilish malakasidir. O'quvchilarga til qurilishi bo'yicha berilgan bilimlar og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilsa, bu ularning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilgan bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Chet tilini o'rganishning turli bosqichlarida til haqidagi bilimlarni shakllantirishning (lingvistik kompetensiya) masalasi muhim hisoblangan. Lingvistik kompetensiya masalasi chet tilini o'qitish metodikasida til kompetensiyasi termini bilan sinonim ravishda qo'llanilib kelingan. Til kompetensiyasi atamasi chet tilida nutqiy faoliyatga kirishishda ko'nikma, malakalarning namoyon bo'lishidir (V.V.Safronova, D.I.Izarenko va boshqalar).Lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari bilan olimlaridan N.Xomskiy, E.N.Solovova, D.Slobin, S.Savinyon, R.P.Milrud, S.Muaran, L.F.Baxman, M.N.Vyatyunyev, D.Xayms, G.V.Kolshanskiy, D.I.Izarenkov, V.V.Safonova, E.N.Dudina, Yan Van Ek, A.A.Mirol'yubov, A.L.Berdichevskiy, J.Raven, I.A.Zimnya, A.K.Markva, A.V.Xutorskiy, E.I.Passov, I.L.Bim, L.N.Chernovatiy, S.F.Shatilov va boshqalar shug'ullanishgan.

Lingvistik kompetensiya o'z tarkibiga fonetik, orfografik, leksik vositalarni kiritadi va N.Xomskiyning fikricha grammatik bilimga ega bo'lish uchun til sistemasi

qatlamlarini yaxshi o'zlashtirish kerak. N.Xomskiy o'z tadqiqotlarida lingvistik kompetensiya deganda tilni to'laqonli bilish, gapirish va tinglash ko'nikmasiga ega bo'lish, grammatik qoidalarni o'z ichiga olgan gaplarni tuzish malakasining shakllanishini nazarda tutadi. Bola dastlab chet tilidagi ushbu grammatik qoidalarni tushunmaydi. Ular tilni boshqacha yo'l bilan, eshitgan ma'lumotini ongsiz ravishda takrorlab gapirish yordamida o'zlashtiradi va ularda dastlab eshitish va gapirish ko'nikmalari shakllanadi. Keyinchalik esa o'qish va yozishni o'rgangandan so'ng grammatik qonun-qoidalarni o'zlashtiradi. Nutqiy faoliyatga kirishish uchun nafaqat lingvistik kompetensiyani rivojlantirish kerak, balki tilni bilishda kommunikativ kompetensiya, ya'ni til sistemasini, uning strukturasi, til qatlamlari hisoblangan fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, so'z yasalishi, so'z birikmasi kabilarni amaliyotda bir sistema sifatida foydalanish ko'nikmasini shakllantirish kerak (E.M.Ver-shagin, V.G.Kostomarov, D.Slobin, S.Muaran, S.Savinyon, L.F.Baxman, Yan Van Ek, M.N.Vyatyutnev, G.V.Kolshanskiy va boshqalar).

TAHLIL VA NATIJALAR

Lingvistik kompetentsiya rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar: lingvistik kompetensiya atrof-muhit, irsiy va ta'lim omillarining kombinatsiyasi natijasida rivojlanadi.

a) atrof-muhit omillari: Tadqiqotlar boy til muhitining ahamiyati, turli xil lingvistik ma'lumotlarga ta'sir qilish va ijtimoiy-iqtisodiy holatning til rivojlanishiga ta'sirini ta'kidlaydi. Xart va Rislining muhim tadqiqoti (1995) erta bolalik davridagi til o'rganishning miqdori va sifati bilan keyingi til natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi.

b) genetik omillar: Tilning rivojlanishida genetik moyillik muhim rol o'ynaydi, bu tilning o'ziga xos tuzilishi va til bilan bog'liq xususiyatlarning irsiyligi (Bishop, 2001) bo'yicha tadqiqotlardan dalolat beradi.

c) ta'lim omillari: Ta'lim sharoitlari va o'qitish amaliyoti lingvistik kompetentsiyaga sezilarli ta'sir qiladi. Samarali savodxonlikni o'rgatish, tildagi kechikishlar uchun erta choralar hamda o'qish va yozish orqali tilni boyitish imkoniyatlari til ko'nikmalarini oshirishi ko'rsatilgan (Snow, Burns va Griffin, 1998).

d) Madaniy va ijtimoiy omillar: Madaniyatlararo tadqiqotlar turli madaniyatlar va jamoalarda lingvistik va pragmatik me'yorlar qanday o'zgarishini o'rganib chiqdi (Gudykunst & Nishida, 2001).

O'quvchilarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, tilni o'zlashtirish va tushunishning turli o'lchovlarini o'z ichiga oladi. Bunga yuqorida sanab o'tilgan omillar atrof-muhit, irsiy va ta'limiy omillar, shuningdek, madaniy va ijtimoiy omillarning murakkab o'zaro ta'siri lingvistik kompetensiyani rivojlantiradi. Tadqiqotchilar va o'qituvchilar tilni o'rgatish jarayonida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, natijada samarali muloqot va akademik muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning nozik tomonlarini o'rganishda davom etmoqdalar.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

O'quvchilarga chet tili darslarida mavzu, o'quv materiallari tanlashda albatta ularning yoshini, qiziqishlari hamda imkoniyatlarini hamda hisobga olish lozim. Bu esa o'quvchilarda chet tili o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi, shuningdek, o'quvchida tilni o'zlashtirish jarayonlarida qiyinchilik, dars mashg'ulotlarida zerikish xissi paydo bo'lmaydi. Shunday ekan,

- Ingliz tili o'qitishda o'quvchilarning ichki turtki sini oshirishga xizmat qiladigan rolli va didaktik o'yinlar tashkil etish;

- Dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning yoshiga mos ravishda jismoniy harakatlarini rag'batlantirish;

- o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga doir qiziqarli leksik, fonetik, grammatik mashqlar to'plamini yaratish hamda amaliyotda qo'llash;

- o'quvchilarda lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlashdan zavqlanish tuyg'ularini barqarorlashtirish.

XULOSA

O'quvchilarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, tilni o'zlashtirish va tushunishning turli o'lchovlarini o'z ichiga oladi. Bunga yuqorida sanab o'tilgan omillar atrof-muhit, irsiy va ta'limiy omillar, shuningdek, madaniy va ijtimoiy omillarning murakkab o'zaro ta'siri lingvistik kompetensiyani rivojlantiradi. Tadqiqotchilar va o'qituvchilar tilni o'rgatish jarayonida o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, natijada samarali muloqot va akademik muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning nozik tomonlarini kashf etadilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tajibayev G.Sh. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish .5112200 – Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili), 5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili), 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. Namangan – 2019. 32-b.
2. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi,-Toshkent,2012.
3. Jalolov J.J, Makhkamova G.T, Ashurov Sh.S. English Language Teaching Methodology.-Toshkent,2015.
4. Saydaliyev S. Chet til o'qitish metodikasidan ocherklar. –Namangan - 2004-238-b.
5. Sattarov T.K. Bo'lajak chet til o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. Toshkent. TDYUI,2003.
6. Gulyamova M.X. Ingliz tili o'qitishda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Pedagogika fan. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati.-T., 2019. 45-b.
7. Hoshimov O', Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi.-T.:Sharq,2003.-

8. Wendy A. Scott and Lisbeth H. Ytreberg. Teaching English to Children.- London. P-4-8.
9. Diane Larsen-Freeman. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford. Second edition. P-121-125.